



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 27-mart, № 62 (8957)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH BO'YICHA YANGICHA IJRO VA NAZORAT TIZIMI JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-mart kuni energiya resurslarini iqtisod qilish, iste'mol samaradorligini oshirish hamda ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Energiya resurslarining eng ko'p sarfi, avvalo, iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ri keladi. Eski davrlarda qurilgan zavodlar ekologiya va energiya samaradorlik talablariga javob bermagan. Yillar davomida modernizatsiyaga yetarli e'tibor berilmagan. Ba'zi joylarda elektr va gaz kunlab bo'lmagan. Sanoat korxonalarida iste'mol va yo'qotishlar ko'p bo'lgan.

Shu bois so'nggi yillarda iqtisodiyot sohalari energiya samaradorlik jihatidan yangilanmoqda. Yirik korxonalar va energetika tarmoqlari kesimida alohida dastur amalga oshirilmoqda.

2030-yilga borib, mamlakatimiz aholisi 41 millonga yetishi, iqtisodiyot 2 karra o'sishi kutilyapti. Bu energiya resurslariga bo'lgan talabni hozirgidan 1,5 karra oshiradi. Shuning uchun yangi loyihalarni ishga tushirib, quvvatni ko'paytirish bilan birga energiyani tejash choralarini ko'rish zarur.

Yig'ilishda mutasaddilar shu boradagi ishlar va kelgusi rejalari to'g'risida axborot berdi.

Prezidentimiz ko'rsatmasiga

muvoqif, o'tgan yilgi tajribani davom ettirib, joylarda energiyani tejash imkoniyatlarini oshirish uchun ilmiy asosda o'rganilmoqda. Xususan, Samarqand, Sirdaryo va Jizzaxdagi o'rganishlarda 870 million kilovatt-soat elektr va 420 million kub metr gazni iqtisod qilishning yangi imkoniyatlari aniqlandi. Masalan, bu viloyatlardagi kichik va o'rta sanoat korxonalarida 35 mingga yaqin eskirgan uskunalarni tejamoq uskunalar o'rnatish, energiya isrofini kamaytirish zarurligini ta'kidladi. Hukumatga bu sohada yangicha ijro va nazorat tizimida ishlash topshirildi.

Ishxonalar va uy-joylarda energiyani tejash madaniyatini oshirish ham muhim. Elektr va gazni behudaga yoqib qo'ymaslik, quyosh panellari va boshqa muqobil manbalardan foydalanish ham ancha hajmni tejaydi. Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholi zich joylashganini hisobga olib, ularni energiya bilan ta'minlashda alohida yondashuv ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bu tajriba bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham joriy etilishi ko'zda tutilmoqda.

Ko'chalarni yoritishga ham

200 million kilovatt elektr sarflanyapti. Quyosh panelli chiroqlar o'rnatilsa, iste'mol 2 karra kamayadi.

Shu kabi imkoniyatlar hisobidan, bu yil 1,1 milliard kub metr tabiiy gaz va 2,6 milliard kilovatt-soat elektrni iqtisod qilish bo'yicha qo'shimcha reja olindi.

Davlatimiz rahbari, birinchi navbatda, yirik sanoat korxonalarida zamonaviy tejamoq uskunalar o'rnatish, energiya isrofini kamaytirish zarurligini ta'kidladi. Hukumatga bu sohada yangicha ijro va nazorat tizimida ishlash topshirildi.

Ishxonalar va uy-joylarda energiyani tejash madaniyatini oshirish ham muhim. Elektr va gazni behudaga yoqib qo'ymaslik, quyosh panellari va boshqa muqobil manbalardan foydalanish ham ancha hajmni tejaydi.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholi zich joylashganini hisobga olib, ularni energiya bilan ta'minlashda alohida yondashuv ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bu tajriba bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham joriy etilishi ko'zda tutilmoqda.

YO'LLAR ZAMONAVIY TALABLARGA JAVOB BERADIGAN, MUQOBIL VA QULAY BO'LADI

Davlatimiz rahbariga avtomobil yo'llari qurish loyihalarining borishi to'g'risida axborot berildi.

Mamlakatimizda jami 184 ming kilometrdan ziyod avtomobil yo'llari bor. Tahlillarga ko'ra, xalqaro ahamiyatga ega yo'llarimizning 25 foizi katta yuklamada ishlayapti. Masalan, kuniga 32 ming avtomobilga mo'ljallangan Toshkent — Samarqand yo'lida 45 mingta transport qatnayapti. Tirbandlik sababli ba'zan bunga 6 soatgacha vaqt ketyapti. 2030-yilga borib harakat jadalligi 80 mingdan oshishi mumkin.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda qaratilgan 2023-yil 10-oktyabrda qaratilgan zamonaviy avtomobil yo'llarini tashkil etish istiqbollari belgilangan edi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchi navbatda, aholiga qulaylik yaratish, milliy iqtisodiyotda logistika zanjirlarini mustahkamlashdir.

Mazkur qarorga muvofiq, Toshkentdan Samarqandga va Andijonga eltuvchi muqobil yo'llar qurish ustida ish olib borilmoqda. Jumladan, Jahon banki ishtirokida Toshkent — Andijon yo'li loyihalashtirildi. Yanvarda uni qurish bo'yicha xalqaro tender e'lon qilindi. Qisqa vaqtda unga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy kompaniyalar qiziqish bildirdi.

Umumiy uzunligi 314 kilometr bo'lgan bu tezyurar magistral

foydalanishga topshirilishi natijasida Toshkent bilan Andijon orasidagi qatnov vaqti 5 soatdan 3 soatgacha qisqaradi. Shuningdek, bu yalpi ichki mahsulotni 2,6 foizga oshirib, avtohalokatlarni 40 foizga kamaytirish imkonini beradi.

Yana bir loyiha Toshkent bilan Samarqandni bog'lovchi qo'shimcha yo'l qurishga qaratilgan. Xorijiy mutaxassislar ishtirokida uning texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. Bu yangi yo'lning uzunligi 300 kilometr atrofida bo'ladi. Uning natijasida Toshkent bilan Samarqand o'rtasida qatnov vaqti 4,5 soatdan 2,5 soatgacha qisqaradi. Hozirgi mavjud yo'lida tirbandlik ancha kamayadi.

Umuman, bu yangi yo'llar barcha zamonaviy talablarga javob beradigan, muqobil va qulay bo'ladi. Ularda haydovchi va yo'lovchilar uchun turli pullik xizmatlar yo'lga qurish ustida ish olib borilmoqda. Mahalliy qurilish korxonalarini ham qatnashishi mumkin bo'ladi.

Transport vaziri mazkur loyihalar holati bo'yicha taqdimot qildi. Geodeziya ishlarini jadallashtirib, yo'llar hududini tayyorlash, qurilishga mablag' va pudratchilarni jalb qilish masalalari ko'rib chiqildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

RAMAZON HAYITINI NISHONLASH TO'G'RSIDA

Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli xalqimiz farovonligini oshirish, ko'p millatli jamiyatimizda tinchlik-osoyshtalik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Bularning barchasi bag'rikenglik, saxovat va shukronalik timsoli bo'lgan muborak Ramazon oyini mamlakatimizda tinch-totuv, fayzli va shukuhli muhitda o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni el-yurtimiz o'rtasida insonparvarlik, o'zaro hurmat va mehr-olib, kam ta'minlangan va ehtiyojmand shaxslar, yordamga muhtoj oilalarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish kabi yuksak insoniy fazilatlar ayni kunlarda yanada yaqqol namoyon bo'layotgani ham tasdiqlaydi.

Ulug' ayyom — muqaddas Ramazon hayitini ana shunday xayrli ishlarini izchil davom ettirgan holda har tomonlama munosib kutib olish, o'tkazish va uning mohiyatida mujassam bo'lgan ezgu qadriyat va an'analarni keng targ'ib etish maqsadida qaror qilaman:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni **30-mart** — yakshanba kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston Milliy axborot musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 2025-yil **30-mart** kuni Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq:

a) ishlanmaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Ramazon hayitining birinchi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2025-yil 26-mart

kuni 2025-yilda yakshanba — dam olish kuniga to'g'ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 31-mart — dushanba kuniga ko'chirilishi;

b) bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarini bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Ramazon hayitini nishonlash milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Ramazon hayitini nishonlash bo'yicha ziyoratgohlar va tarixiy qadamjollarga ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

4. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q. Davletov zimmasiga yuklansin.

Muloqot

O'zbekiston va Avstriya:

O'ZARO ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Avstriyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Mattias Radostich bilan uchrashdi.

Muloqot avvalida keyingi yillarda O'zbekiston va Avstriya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni izchil rivojlanib borayotgani, turli darajadagi tashrif va muzokaralar sur'ati ijobiy xususiyat kasb etayotgani ta'kidlandi.

Tomonlar savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada mustahkamlash, jumladan, fan va ta'lim sohasida tajriba almashish, talabalar uchun o'quv dasturlarini joriy etish masalalarini muhokama qildi.

Uchrashuvda, xususan, parlamentlararo hamkorlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi ekanini ta'kidlandi. Shu nuqtai nazardan, ikki tomonlama aloqalarni faollashtirish, ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirishda parlamentlararo hamkorlikning keng va samarali foydalanish yuzasidan fikr almashildi.

O'z navbatida, Avstriya

Federal Kengashi Prezidenti Andrea Eder-Gitshtalerning O'zbekistonga bo'lajak tashrifi va uning parlamentlararo muloqot hamda davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so'z bordi. Avstriya parlamenti vakillari shu yil 5 — 9-aprel kunlari Toshkent shahrida o'tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etishga katta qiziqish bildirayotgani aytiladi.

Samimiy va konstruktiv ruhda o'tgan muloqotda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va belgilangan tashabbuslarni amalga oshirish borasidagi masalalar ham ko'rib chiqildi.

E'TIBOR MARKAZIDA — KENG QAMROVLI TADBIRLARNI TASHKIL QILISH

26-mart kuni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Koreya Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Von Do Yon bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi do'stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, keng ko'lami hamkorlik, xususan, istiqboldagi loyihalar haqida so'z bordi.

Jumladan, uchrashuvda ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, iqtisodiyot va investitsiya loyihalarini yanada kengaytirish, bu borada hududlararo hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi.

Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda parlamentlararo muloqotning o'rni muhimligiga e'tibor qaratildi. Shu jihatdan parlamentlararo

muloqot va do'stlik guruhlari ishini faollashtirish va keng ko'lamdagi qo'shma tadbirlarni tashkil etish masalalariga urg'u qaratildi. Shuningdek, yurtimizda bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi samarali bo'lishida Janubiy Koreya parlamenti delegatsiyasi ham o'z hissasini qo'shishiga ishonch bildirildi.

Muloqot yakunida O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

Komissiya yig'ilishi

MILLIONLAB OPA-SINGILLARIMIZ HAYOTINI O'ZGARTIRISHGA QARATILGAN EZGU TASHABBUSLAR



O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasida Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasining kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisni O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va mazkur komissiya raisi Qudratilla Rafiqov olib bordi.

Yig'ilishda Markaziy studiyadan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Bosh vazir o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova, vazirlik hamda idoralar

rahbarlari, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va tarmoq kasaba uyushmalari respublika kengashlari mutasaddilari, hududiy studiyalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining va viloyatlar hokimlarining iqtisodiyot, ijtimoiy hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, tuman hokimlari, respublika komissiyasiga a'zo bo'lgan vazirlik hamda idoralarning hududiy boshqarmalari boshliqlari va boshqa mas'ullar qatnashdi.

Anjuman oldidan

FAOL VA PRAGMATIK TASHQI SIYOSATNING XALQARO E'TIROFI

Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramay O'zbekistonning tamomila yangicha mazmun kasb etayotgan faol va pragmatik tashqi siyosati tufayli mamlakatimiz jahon siyosatining markazlaridan biriga aylanib boryapti. Shu yilning 5 — 9-aprel kunlari Toshkentda bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi ham fikrimiz tasdig'idir.

Ta'kidlash joizki, jahondagi 180 ta parlamentni birlashtirgan ushbu nufuzli tuzilma o'zining yuqori organi — assambleyani parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda

o'tkazadi. Shu ma'noda, assambleyaning ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasida, aynan O'zbekistonda o'tkazilishi esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, parlamentarizmi

rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgani namoyonidir. Darhaqiqat, keyingi yillarda mamlakatimizda parlamentarizmi rivojlantirish borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi tarmog'ining vakolatlari va majburiyatlari sezilarli darajada kengaytirildi.

O'ZBEKISTON MINTAQADA PARLAMENTLARARO DIPLOMATIYA MAYDONIGA AYLANMOQDA

Ayni kunlarda dunyo davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar, nufuzli va yetakchi ommaviy axborot vositalari nigohi O'zbekistonga qaratilgan. Sababi, joriy yil 5 — 9-aprel kunlari Toshkent shahri tarixiy va geosiyosiy jihatdan muhim xalqaro siyosiy maydonga aylanadi. Bu sanada O'zbekiston poytaxtida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi bo'lib o'tadi. Ushbu tadbir nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixida ilk bor uyushtirilayotgan eng yirik parlamentlararo anjuman sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Parlamentlararo Ittifoq 1889-yilda tashkil qilingan bo'lib, dunyodagi qonun chiqaruvchi organlarning eng yirik va nufuzli xalqaro tuzilmasidir. Unga 180 dan ziyod mamlakatlar a'zo bo'lgan, shuningdek, 15 ta mintaqaviy parlament va 15 ta kuzatuvchi tashkilot faoliyat yuritadi. Uning asosiy

maqsadi demokratiyani mustahkamlash, parlamentlararo muloqotni rivojlantirish, inson huquqlari va global muammolar bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishdir.

O'zbekiston 1992-yilda Parlamentlararo Ittifoqqa a'zo bo'lgan, 2017-yilda a'zolik faoliyatini qayta jonlantirdi.

MILLIONLAB OPA-SINGILLARIMIZ HAYOTINI O'ZGARTIRISHGA QARATILGAN EZGU TASHABBUSLAR

Yig'ilishda Prezidentimizning shu yil 14-martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash hamda "ayollar daftari"ning 6-bosqichiga kiritilgan 1 mln. nafardan ziyod xotin-qizlarga belgilangan amaliy yordamlarning o'z vaqtida berilishi va manzilligini ta'minlash borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar hamda aniq vazifalar belgilab olindi. Xususan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mas'ul rahbarlar oldida Prezidentimizning xotin-qizlar bandligini ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo'nalishlarida bergan topshiriqlari ijrosini sifatli bajarish bo'yicha tegishli vazifalarni qo'ydi.

Yig'ilishda bu boradagi ishlarda hech qaysi ehtiyojmand ayol chetda qolib ketmasligini zarurligi alohida ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimda mamlakatimizdagi ayollar uchun qator imkoniyat hamda imtiyozlarni e'lon qilib, joriy yilda amalga oshiriladigan muhim vazifalarni belgilab berdi, - dedi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi, Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi raisi Qudratilla Rafiqov. - Shuningdek, 2025-yil ayollar bandligini ta'minlashda hal qiluvchi yo'l o'zgarishi ta'kidlab, mas'ullarga 2 mln. xotin-qizning bandligini ta'minlash topshirig'ini berdi. Bu 2 million oila, ya'ni kamida 8 million nafar aholining turmush farovonligi oshib, davlatdan rozi bo'ladi, deganidir.

Qayd etilganidek, mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish



Akmal MUHAMMADOV olgan surathir.

mexanizmlari aniq. Xususan, 1 mln. 300 ming nafar xotin-qiz bandligini ta'minlashga Markaziy bank va tijorat banklari mas'ul etib belgilandi. Respublika komissiyasi tomonidan esa "ayollar daftari" orqali 636 ming nafar opa-singlimiz bandligi ta'minlanadi. Bundan tashqari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan 100 ming nafar ayolni o'qitib, ishli qilish hamda biznesini oshirishga ko'maklashish ishlarni tashkil etadi.

Majlisda respublika komissiyasi a'zolariga mazkur yo'nalishlardagi keng qamrovli ishlarni samarali amalga oshirish mexanizmlari batafsil tushuntirilib, aniq va manzilli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Xususan, mas'ullarga xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini izchil amalga oshirish, mavjud muammolarni tanqidiy tahlil qilish va ularni bartaraf etish choralari ko'rish, ijtimoiy ahvoli hamda turmush sharoiti og'ir, ishsiz, zo'ravonlikka uchragan ayollar muammolarini aniqlab hal qilish, "ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, oilaviy ajrimlarning oldini

olish, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish singari dolzarb vazifalar ko'rsatib o'tildi. Tadbirda qatnashgan tijorat banklari mas'ullari 1 mln. 300 ming nafardan ziyod xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha ishlab chiqqan rejalari bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

Shundan so'ng kun tartibidan o'rin olgan ikkinchi masala - "ayollar daftari"ning 6-bosqichini tizimli amalga oshirish borasida olingan muhim vazifalar muhokama etildi. Aytilganidek, endilikda "ayollar daftari" tizimi ijrosi bo'yicha viloyat, tuman, mahalla darajasida ish olib boriladi hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, shuningdek, O'zbekiston mahallalari uyushmasining hududiy boshqarmalari hamda "mahalla yetiligi"ning roli va o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Aytish joizki, "ayollar daftari"ning va ularni bartaraf etish choralari ko'rish, ijtimoiy ahvoli hamda turmush sharoiti og'ir, ishsiz, zo'ravonlikka uchragan ayollar muammolarini aniqlab hal qilish, "ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, oilaviy ajrimlarning oldini

6-bosqichi joriy yilning yanvar oyidan boshlangan. O'tgan davr mobaynida 9 453 ta mahallaning har birida kasaba uyushma vakillari va "mahalla yetiligi" tomonidan xonadon-ma'yanon yurish orqali 7,7 mln. nafardan ziyod xotin-qizlarning muammolari va ijtimoiy

ahvoli maxsus so'rovnoma asosida o'rganib chiqildi. Natijada ijtimoiy yordamga muhtoj ayollar aniqlandi, jami 1 milliondan ziyod ehtiyojmand xotin-qizlar "ayollar daftari"ning 6-bosqichiga kiritildi va ularning har biri uchun individual dastur ishlab chiqildi.

Yig'ilishda "ayollar daftari"ning 6-bosqichiga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarga tegishli amaliy yordamlarni ko'rsatib, ularning muammolarini hal etish borasidagi asosiy vazifalar belgilab olindi. Unga ko'ra mazkur daftardagi xotin-qizlar bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kredit, subsidiyalarni ajratish, doimiy daromad manbaini yaratib berish bo'yicha manzilli reja ishlab chiqildi.

Asosiy, kredit olgandan so'ng o'z holiga tashlab qo'yilmasdan ularni oyoqqa turib olinguna qadar qo'llab-quvvatlash ishlari tashkil etiladi. Boquvchisi bo'lmagan, nogironligi bor ehtiyojmand xotin-qizlar, shuningdek, tezkor tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar hamda qaramog'ida nogironligi bor farzandi bo'lgan qiymalig ayollarga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha bo'lgan darajada moddiy yordam berish, 6 ming nafarining uy-joyi va yashash sharoitini yaxshilash bo'yicha aniq hamda manzilli chora-tadbirlar, o'z navbatida, bunga mas'ullar belgilandi.

Yig'ilishda, shuningdek, "ayollar daftari" nizomiga muvofiq 21 turdagi xizmatlar "daftari"ga kiritilgan barcha xotin-qizga ko'rsatilishi muhimligi qayd etildi. Majlisda ma'lum qilinganidek, kasaba uyushmalaridan hududlarga birlashtirilgan mas'ullar joylarda ayollarga amaliy yordam berish ishlarni muvofiqlashtirish bilan birga, yordamlarning haqqoniyligini

joylarga chiqqan holda o'rganadi. Respublika komissiyasi har yili "ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarning 50 ming nafarini Toshkent viloyatidagi dam olish maskanlariga yuborib, ularga ruhan yordam ko'rsatish hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish bo'yicha jobizdor seminarlar tashkil etib boradi. Sayohat davomida xotin-qizlar uchun ko'ngilochar madaniy tadbirlar ham uyushtiriladi.

Videoselektor yig'ilishida yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlardagi ishlarni samarali amalga oshirishni ta'minlash borasida respublika komissiyasi a'zolari, shuningdek, hududiy studiyalardan ishtirok etgan mas'ullar o'z taklif hamda mulohazalarini bayon qilishdi.

Xususan, Qoraqalpog'iston studiyasidan ishtirok etgan O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlarning naqadar muhimligini va ularni so'zsiz ijro etish bo'yicha barcha imkoniyatlar ishga solinishini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amaliyotga tatbiq etilgan "ayollar daftari" tizimi doirasida olib borilayotgan ezgu sa'y-harakatlar millionlab opa-singillarimiz, ularning oilalari turmush darajasini yaxshilash, hayotiga yorug'lik va rozilik olib kirishga qaratilgan bilan g'oyatda ahamiyatlidir. Bu esa barcha mas'ul va mutasaddirlardan bor imkoniyatlarini safarbar qilib, yakkilik bilan ish olib borishni talab etadi. Zero, xalqimizni rozi qilishdek ulkan mas'uliyat ushbu tadbirlarga jalb qilinganlarni yagona maqsad sari birlashtirib turadi.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").

O'zbekiston va JST: QONUNCHILIK VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR

Konferensiyani Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, Qonunchilik Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha komissiyasi raisi Rahim Hakimov kirish so'zi bilan ochib, O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish yo'lida faol siyosat olib borayotgani, davlatimiz rahbari boshchiligidagi bu borada keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. So'nggi ikki yil davomida muzokaralar jarayoni yanada jadallashib, qisqa tarixiy davr oraliqida JSTga a'zo 20 dan ortiq davlatlar bilan muzokaralar yakunlangani, qonunchilikimizni JST talablariga moslashtirishga qaratilgan 20 dan ziyod qonun hujjatlarini qabul qilindi.

Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi tavsiyalaridan kelib chiqib, Parlament komissiyasi tuzilgan, uning oldida alohida vazifalar belgilab olingani, shulardan kelib chiqib, "aql markazlari" bilan yanada samarali hamkorlik o'rnatish, qonunchilik jarayoniga olimlar, tadqiqotchilar, ayniqsa, talab-yoshlarni faol jalb qilish, ularning ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarini o'rganish har jihatdan foydali hamda manfaatli ekanini alohida urgulandi.

Ish-tirokchilar milliy qonunchilikni JST kelishuvlariga muvofiqlashtirishga qaratilgan huquqiy islohotlarning dolzarb masalalari, shuningdek, JSTga qo'shilish jarayonini yakunlash hamda iqtisodiyotimizning dunyo bozorlariga integratsiyasini kuchaytirish, JST a'zolidan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan institutsional o'zgarishlarni muhokama qildi. Bu jarayonda parlamentning o'rnini, turli davlat hokimiyati organlari, "aql markazlari" o'rtasida samarali savdo siyosatini shakllantirishdagi hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili Azizbek O'runov ma'ruza qilib, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lish jarayonining asosiy jihatlari e'tibor qaratildi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati, yuzim iz qit sodiy siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligi ta'kidlandi, ushbu yo'nalishda O'zbekiston oldida turgan asosiy vazifalarga to'xtalib o'tildi.

Deputatlar, olimlar, ekspertlar ham so'zga chiqib, kun tartibidagi masala yuzasidan munosabat bildirdi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi juda muhim, - deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nodir Tilavoldiyev. - Bu katta iqtisodiy imkoniyat, teng raqobat, eksportga qaratilgan sanoat va savdo siyosatidir. Ya'ni mamlakatimizda katta bozor rivojlanishi tadbirkorlarga keng imkoniyatlar beradi, ishchi o'rinlari yaratiladi, odamlarimizning farovonligi yanada oshadi. Ayni vaqtda O'zbekistonning JSTga qo'shilishi bo'yicha islohotlar samarali ro'yobga chiqarilayotgani, bu borada quyi palatning tegishli komissiyasi faol ish yuritayotgani, Qonunchilikimizni JST talablariga muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, har bir qonun loyihasining JST qoidalari bilan mosligi o'rganilayotgani, Natijada bir qator qonunlar qabul qilinishiga erishilmoqda. Albatta, bu boradagi sa'y-harakatlarimizni izchil davom ettirgan holda yanada faol, tashabbuskor bo'lishimiz maqsadga muvofiqdir.

Anjumaning universitetimizda uyushtirilgan ayni muddao bo'ldi, - deydi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti Gavhar Sultonova. - Qonun ijodkorlari bilan faol muloqot qildik, savollarimizga javob oldik. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni qizg'in muhokama qilindi, qonunchilikni kiritilayotgan o'zgartirishlardan xabardor bo'ldik. "Aql markazlari"ning bu jarayondagi roli alohida qayd etildi. Bu bejiz emas. Chunki bugungi kunda aynan mazkur yo'nalishdagi masalalar olimlar, yosh tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Muloqot chog'ida tadqiqot natijalarimiz bilan o'rtoqlashdik. Taklif va tavsiyalarimiz amaliyotga, muhim qarorlar qabul qilish jarayoniga, albatta, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois parlament hamda "aql markazlari" o'rtasida hamkorlikni izchil rivojlantirish juda muhim va zarurdir.

Konferensiya doirasida panel muhokamalari o'tkazildi. Unda ishtirokchilar tahlil markazlarining savdo siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ta'siri, shuningdek, davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik strategiyalarini muhokama qildilar.

Qizg'in savol-javoblardan so'ng jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv jarayonini muvaffaqiyatli yakunlash uchun qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish va mamlakat institutsional salohiyatini mustahkamlash zarurligi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida SHAFFOFLIK VA RAQOBAT - MUVAFFAQIYAT OMILI

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan davlat xaridlari jarayonidagi muammo va kamchiliklarning oldini olish bo'yicha deputatlik nazoratini kuchaytirish maqsadida seminar tashkil etildi.

Unda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari a'zolari, mahalliy Kengash kotibiyatlarini xodimlari, tegishli vazirlik va idoralar mutasaddirlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. Tadbirda davlat xaridlari jarayonida shaffoflik va raqobati oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborot berildi. Xususan, 2024-yil davomida respublika bo'yicha 248 trln. so'mdan ortiq davlat xaridlari amalga oshirilib, natijada 14 trln. so'm mablag' tejalgani aytiladi. Shuningdek, sohada tadbirkorlik subyektlari ishtiroki 20 foizga oshgani ta'kidlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasida o'tkazilgan 5-monitoring natijalariga ko'ra, O'zbekistonning davlat xaridlari tizimi "o'rta" toifadan "yuqori" toifaga ko'tarilganligi alohida e'tirof etildi. Seminar davomida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, davlat xaridlari jarayonlarida ochiqlikni oshirish hamda ushbu yo'nalishda mavjud muammo va kamchiliklar yuzasidan fikr almashildi.

Muhokama chog'ida Qoraqalpog'iston Respublikasi

Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy Kengashlarining tegishli komissiyalari tomonidan respublika va mahalliy byudjet mablag'larini ijrosi ustidan samarali deputatlik nazoratini olib borish zarurligi ta'kidlandi.

"Yashirin iqtisodiyot" darajasini pasaytirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgani barobarida yuzaga kelayotgan ayrim muammo va kamchiliklarga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, ayrim tadbirkorlar soliq to'lamaslik maqsadida korxonada ishlovchi xodimlar sonini yashirayotgani, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorida past maosh belgilayotgani, ustav jamg'armasini shakllantirish yo'li bilan soliqlardan qochishga urinayotgani aytiladi.

Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish jarayonida soliq to'lovchilar bilan yuzaga kelayotgan muammolar, qurilish ishlari ajratilayotgan byudjet mablag'laridan noo'rin foydalanish, quruvchilarga mehnat haqlarini "konvert" orqali to'lashning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Seminar yakunida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

QO'SHMA LOYIHALAR ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQILDI

Kecha Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi O. Qozixonova Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT)ning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori Antti Karttunen bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv

Unda yoshlar hamda xotin-qizlarning turli sohalardagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha asosiy masalalar muhokama etildi. Shuningdek, tomonlar gender tenglik sohasidagi hamkorlikning muhim jihatlari va istiqbolga mo'ljallangan rejalarni ham ko'rib chiqishdi.

Muloqot chog'ida Prezident

Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi tufayli mamlakatda keng ko'lami islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, ushbu o'zgarishlar davlatning siyosiy-huquqiy po'ydevorini mustahkamlashga, inson huquqlari institutlarini rivojlantirishga hamda jamiyatning farovonligi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgani ta'kidlandi. O'z navbatida, YXHTning

mamlakatimizdagi loyihalari koordinatori amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni e'tirof etar ekan, jamiyatni isloh qilish jarayonida O'zbekiston parlamentining roli ortib borayotganini qayd etdi. Va inson huquqlari hamda demokratik o'zgarishlar sohasidagi umumiy maqsadlarni amalga oshirish uchun YXHT va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligiga urg'u berdi.

Uchrashuv yakunida qo'shma loyihalarni amalga oshirish va mamlakatning demokratik qadriyatlar ruhida barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishida hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

ISHCHI GURUHI AHOLI MUAMMOLARINI O'RGANYAPTI

Parlament ishchi guruhi tomonidan hududlardagi ijtimoiy muammolarni o'rganish va ularni manzilli hal qilish maqsadida yangi tizim joriy etilmoqda.

Senatorlar - hududlarda

Xususan, atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish, bandlikni ta'minlash, sog'lom turmush tarzini qaror topirish kabi muhim masalalar yuzasidan ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda parlament komissiyasi ishchi guruhi, Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash

jamoat fondi va mahalliy Kengash deputatlari mahallalar aholisi bilan muloqot o'tkazib, ularni o'ylantirayotgan masalalarni o'rganmoqda. Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova raisligidagi ishchi guruh Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida mahalliy Kengash

deputatlari hamda mahallalar vakillari bilan uchrashib, mavjud ijtimoiy muammolarni tahlil qildi.

O'rganishlar natijasiga ko'ra hududlardagi ustuvor muammolari hal etish maqsadida davlat grant tanlovlari e'lon qilinishi rejalashtirilmoqda. Ma'lumot uchun aytish joizki, 2024-yil davomida Xorazm viloyatida 11 ta loyihaga 1 mlrd. 890 mln. so'm davlat granti ajratilgan.

Parlament komissiyasi ishchi guruhi tomonidan amalga oshirilgan ushbu o'rganishlar ijtimoiy muammolarni samarali hal qilishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

"Xalq so'zi".

FAOL VA PRAGMATIK TASHQI SIYOSATNING XALQARO E'TIROFI

O'zbekiston parlamenti qonun ijodkorligi bilan bir qatorda nazorat-tahlil faoliyati, xususan, parlament eshituvlari, byudjet nazorati, "hukumat soati", deputatlik so'rovlarini tashkil etish, saylovchilar bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlari - parlament va mahalliy Kengashlarning o'mi va ahamiyati tubdan o'zgardi. Oliy Majlis hamda siyosiy partiyalar vakolatlari kengaytirildi, parlament va jamoatchilik nazorati institutlari mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza etuvchi organlar rahbarlari tomonidan parlament va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga hisobotlar taqdim qilinishi tartibi joriy etildi.

Ayonki, Parlamentlararo Ittifoq dunyo mamlakatlarining qonun chiqaruvchi organlari uchun global muloqot maydoniga aylangan nufuzli tashkilot hisoblanadi. Parlamentlararo o'rtasidagi aloqalarni rag'batlantirish va xalqaro tinchlik hamda hamkorlikni mustahkamlash ishidagi birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun ularni birlashtirish bu tashkilotning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Oliy Majlisining Parlamentlararo Ittifoq faoliyatidagi ishtiroki, asosan, ushbu tashkilot assambleyasi doirasida, Ijroiya qo'mita va doimiy qo'mitalarga a'zolik, birgalikda xalqaro forum va seminarlar o'tkazish, shuningdek, tashkilotning asosiy hujjatlarida belgilangan tamoyil va mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish orqali amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu nufuzli tashkilot bilan

o'zaro hamkorlikda Toshkentda parlamentdagi spiker ayollarning 14-sammiti, Buxoroda "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda global parlamentlararo hamkorlik", shuningdek, Samarqandda "Millatlararo tinchlik va dinlarga bag'irikenglikni ta'minlashda parlamentning o'rnini" mavzularida ko'plab yirik forumlar o'tkazilgani e'tiborga molik.

Umuman olganda, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yangi O'zbekistonning faol va pragmatik tashqi siyosatini yana bir bor xalqaro miqyosda namoyish etishga xizmat qiladi.

Munajat YO'LCHIYEVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

O'ZBEKISTON MINTAQADA PARLAMENTLARARO DIPLOMATIYA MAYDONIGA AYLANMOQDA

Shundan buyon O'zbekiston parlamentining xalqaro faolligi ortdi, qonunchilikda ochiqlik va parlament nazorati kuchaydi.

Toshkentdagi 150-yubiley assambleyaning asosiy mavzusi "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" deb nomlangan bo'lib, tadbir doirasida kambag'allikni qisqartirish va tenglikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda parlament nazorati, ijtimoiy inklyuziya va imkoniyatlar tengligi, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash hamda yoshlar, ayollar va ijtimoiy zaif guruhlarning huquqlarini himoya qilish kabi masalalar muhokama etilishi rejalashtirilgan.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, kun tartibida ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan masalalarda songgi

yillarda O'zbekistonda keng ko'lami ijobiy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Buni iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishish, ijtimoiy himoya, davlat boshqaruvida parlamentning o'rnini va rolini oshirish kabi islohotlar misolida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ushbu vazifalarni amalga oshirishga oid bir qator maqsad va ko'rsatkichlar belgilangan.

Ayni vaqtda bu mavzular jahon miqyosida ham dolzarb bo'lib, assambleya muhokamalari global siyosiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, Toshkentda o'tkaziladigan assambleyaning O'zbekiston va Markaziy Osiyo taraqqiyoti uchun ham ahamiyati yuqori.

Jumladan, Toshkentda bunday yirik forumning o'tkazilishi

O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy nufuzini mustahkamlaydi. Bu mamlakatning ochiqlik va hamkorlik siyosatini amalda namoyon etadi. Markaziy Osiyoda birinchi marta o'tayotgan Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi O'zbekistonning mintaqada parlamentlararo diplomatiya markaziga aylanayotganidan dalolat beradi. Tadbir orqali milliy parlamentimiz faoliyatining xalqaro standartlarga moslashtirishiga, qonunchilik jarayonlarida shaffoflik va jamoatchilik nazoratining kuchayishiga turki beriladi.

Shuningdek, ushbu nufuzli tadbirning iqtisodiyot va turizm salohiyatidagi o'rnini ham yuqori. Minglab delegatlar hamda mehmonlarning tashrifi orqali mamlakatdagi servis sohasi, logistika, turizm va mehmonxona

biznesi faoliyati jadallashadi. Forum doirasida yoshlar parlamentlari, ayol deputatlar va turli fuqarolik jamiyatlari ishtirokida alohida sessiyalar tashkil etiladi. Bu ijtimoiy tenglik va inklyuziv siyosatning amaliy ifodasidir.

Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi O'zbekiston uchun xalqaro siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylinishda muhim bosqich bo'ladi. Bu tadbir nafaqat milliy parlamentarizmni rivojlantirish, balki mintaqadagi barqarorlik, adolat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois ushbu anjuman tarixiy voqea sifatida yuksak baholalanmoqda va uning natijalari xalqaro maydonda katta ahamiyat kasb etadi.

Mavluda ADHAMJONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

11 TA REZOLYUTSIYA AHAMIYATI TARG'IB QILINADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan "Tashqi siyosat sohasida erishilgan natijalar hamda O'zbekiston tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan 11 ta rezolyutsiyaning ahamiyatini yoritish" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.



Qonunchilik palatasi deputatlari, ekspertlar, xalqaro munosabatlar va xavfsizlik yo'nalishidagi mutaxassislar hamda OAV vakillari qatnashgan tadbirida mazkur rezolyutsiyaning ahamiyatini yoritish, O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish masalalari atroflicha muhokama etildi. Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida o'tgan davrda O'zbekiston tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 11 ta rezolyutsiya qabul qilingani, palataning xalqaro ishlarga mas'ul qo'mitasi endi bu borada yangicha faoliyat olib borishi lozimligini ta'kidlagan edi. Belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida 11 ta rezolyutsiyaning ahamiyatini yoritish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan mediareja ishlab chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimiz tomonidan ilgari surilayotgan umumjahoniy va mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining tomonidan jahonda va Markaziy Osiyo miqyosida tinchlik hamda xavfsizlik, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ma'rifat va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, ekologik muammolarni samarali bartaraf etish, Orolbo'y mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish, turizm va

sivilizatsiyalar muloqotini yanada rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan global kun tartibi uchun muhim rezolyutsiyalar qabul qilindi. Tadbirida ushbu rezolyutsiyaning ahamiyatini yoritish, O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida 11 ta rezolyutsiya qabul qilingani, palataning xalqaro ishlarga mas'ul qo'mitasi endi bu borada yangicha faoliyat olib borishi lozimligini ta'kidlagan edi. Belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida 11 ta rezolyutsiyaning ahamiyatini yoritish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan mediareja ishlab chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimiz tomonidan ilgari surilayotgan umumjahoniy va mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining tomonidan jahonda va Markaziy Osiyo miqyosida tinchlik hamda xavfsizlik, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ma'rifat va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, ekologik muammolarni samarali bartaraf etish, Orolbo'y mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish, turizm va

MAISHIY CHIQINDILAR BILAN BOG'LIQ MASALALAR MUHOKAMASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi direktorining "Qattiq maishiy chiqindi poligonlarining sanitariya talablari va ekologik me'yorlarga muvofiqligini ta'minlash hamda rekultivatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, sanitariya talablari bilan bog'liq ishlar xizmatlar sifatini oshirish, maishiy chiqindilarni to'plash va hududlardan olib chiqish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning "2019 - 2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlar amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni sohadagi islohotlarni amalga oshirishda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

mavsumida 123 ta chiqindi poligoni atrofida 197 ming tup turli xildagi daraxt va buta ko'chatlari ekilgan. Tadbirida amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda poligonlarga ko'mish uchun yo'naltiriladigan qattiq maishiy chiqindilar hajmini kamaytirish, poligonlar holatini o'rnatilgan talablarga muvofiqlashtirish, foydalanib muvofiqdigan poligonlar (chiqindixonalar)ni yopish va rekultivatsiya qilish masalalarida kechikishlar mavjudligi qayd etildi. Munozaralar davomida deputatlar tomonidan joylarda saylovchilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar davomida ko'tarilgan masalalar hamda chiqindi poligonlaridagi o'rganishlari natijasida olingan ma'lumotlar asosida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari sifatini oshirish, chiqindilarning poligonlarda to'planib qolishini oldini olish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida poligonlar atrofini o'rash va "yashil belbog"larni ko'paytirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Tadbir yakunida deputatlar tomonidan sohaga oid qonunlarni takomillashtirish, ularning joriyidagi ijrosini nazorat-tahlil faoliyati tartibida o'rganish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH - ASOSIY VAZIFA

Iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan borgan har qanday davlat xususiy sektorni boshqarishda davlat aralashuvini qisqartirish, bozor qonuniyatlarining samarali ishlashi uchun qulay sharoit yaratish va adolatli raqobatni rag'batlantirishga intiladi. O'zbekiston ham shunday mamlakatlardan biridir.

Munosabat

Bu oxirgi yillarda yurtimizda ishlabarmonlik muhitini yaxshilash, aholi orasida biznes yuritish madaniyatini rivojlantirish va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlarda ham yaqqol aks etmoqda. Qolaversa, davlatimiz tomonidan xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda kichik va o'rta biznes sohalari rivojlantirish maqsadida bir nechta qonun, Farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada kichik va o'rta biznesni yo'lga qo'yganlarning ko'kragiga shamol teydi.

Prezidentimiz raisligida yaqinda kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuv o'tkazilib, bu yo'nalishda bajariladigan ishlar, uni rivojlantirish hamda muammolarni bartaraf etish bo'yicha masalalar ko'rib chiqilgan kichik va o'rta biznesni rivojlantirish davlatimizning eng asosiy vazifasi ekanligini yaqqol dalildir.

Xususan, oxirgi yillarda kichik va o'rta biznes subyektlari soni ikki karra oshganligi, shuningdek, sohada 10,5 mln. odam band bo'lib, jami aholining 74 foizi

daromad topayotganligi e'tiborga molik. Iqtisodiyotning yarmidan ko'pi, sanoat va eksportning uchdan biri kichik hamda o'rta biznes sohasi vakillari hissasiga to'g'ri kelayotganligi mamlakat iqtisodiyotida bu soha qanchalik muhim ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlov kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga yanada turki bermoqda.

Ushbu tarixiy uchrashuvda davlatimiz rahbari 2025-yil uchun sohadagi asosiy maqsad va vazifalarga to'xtalib o'tdi.

Jumladan, kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga ko'tarib, 70 mlrd. dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish vazifasi belgilandi. Shuningdek, yangi bozorlarga kirib borishda transport, sertifikat va standart masalalariga ko'maklashib, kichik biznes eksportini o'tgan yilgi 9 milliarddan 12 mlrd. dollarga olib chiqish, ichimlik suvi, kanalizatsiya, yo'l, quvurlar, kommunal xo'jalik, yetkazib berish, utilitatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini 2-3 karra oshirish borasida jiddiy ishlarga kirishilishi ta'kidlandi.

Ayni paytda 1,5 mln. doimiy ish o'rni tashkil qilib, sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish, 100 nafardan ko'p ishchisi bor korxonalarni 4 mingtaga olib chiqish, kichik biznesda yangi 100 ta brend mahsulot chiqarishni yo'lga qo'yish, kichik biznes ishtirokida 200 ta startap loyihani moliyalashtirish

boshqalarga nisbatan 2 foiz arzon bo'ladi. Joriy yil davomida kichik yoki o'rta tadbirkorlik subyektlariga aylangan ishlabarmonlarga 150 mln. so'mgacha garovsiz, xuddi shu tartibda oliyaviy tadbirkorlik bo'yicha ham 50 mln. so'mgacha kredit beriladigan bo'ldi. Qolaversa, yer va binolar

huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkor javobgarlikdan ozod qilinib, unga kamchilikni bartaraf etish imkoniyati beriladi. Shuningdek, oxirgi yil yillik aylanmasi 10 mlrd. so'mdan oshmagan va soliqdan qazri bo'lmagan korxonani ixtiyoriy tugatishda tekshiruv o'tkazilmaydi.

Alohida ta'kidlash joizki, QQS va foyda solig'i stavkalarini "muzlatish" hamda 2028-yil 1-yanvarga qadar QQS va foyda solig'i stavkasi oshirilmagligi kichik hamda o'rta biznesning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Endi kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha talab va majburiyatlar yuklaydigan me'yoriy hujjatlarni qabul qilishga uch yillik moratoriy e'lon qilindi. Shuningdek, fermer xo'jaliklaridan soliqdan qazirni vaqtida to'lay olmagan uchun shu paytgacha yig'ilib qolgan 1 trln. so'mlik jarima sanksiyalarini undirishdan voz kechiladi.

Umuman, mamlakatimizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari joriy etilishi zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar kirib kelishiga va yaqqori qo'shilgan qiymatli mahsulot yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatidir.

Xurshid XUDOYQULOV, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Moliya va moliya texnologiyalari kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 trln. so'm, shundan 2,5 trln. so'mi yoshlarning biznes loyihalariga hamda yana shuncha ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun yo'naltiriladi. Bunda ayol tadbirkorlarga kredit stavkasi boshqalarga nisbatan 2 foiz arzon bo'ladi. Joriy yil davomida kichik yoki o'rta tadbirkorlik subyektlariga aylangan ishlabarmonlarga 150 mln. so'mgacha garovsiz, xuddi shu tartibda oliyaviy tadbirkorlik bo'yicha ham 50 mln. so'mgacha kredit beriladigan bo'ldi.

ham maqsad qilingani tahsinga sazovor.

Albatta, bu vazifalarni bajarish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun imtiyozlar berilishi ta'kidlandi. Xususan, 2025-yilda kichik va o'rta biznesga 120 trln. so'm kredit resurslari taqdim etiladi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 22 trln. so'm, shundan 2,5 trln. so'mi yoshlarning biznes loyihalariga hamda yana shuncha ayollar tadbirkorligi loyihalari uchun yo'naltiriladi. Bunda ayol tadbirkorlarga kredit stavkasi

imtiyozli shartlarda ijaraga beriladi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratayotgan tadbirkorlarga 10 000 kvadrat metr gacha bo'lgan davlat obyektlari 5 yil muddatga bepul foydalanishga topshiriladi. Xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, 20 ta tumanda kichik va o'rta sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha loyiha ofislari ochiladi. Bu maqsadlar uchun joriy yilda 100 mlrd. so'm ajratiladi.

Bundan tashqari, "Birinchi imkoniyat" tamoyili amaliyotga kiritilishi, ilk bor ma'muriy

MAHALLANI HARAKATGA KELTIRGAN YETTOVLON

Urganch shahridagi Nuri hayot mahallasi 2022-yilda tashkil etilgan bo'lib, bu yerda besh mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Hududda 30 ta ko'p qavatli uy mavjud bo'lib, ularning 25 tasidagi xonadonlar uy-joyga muhtoj fuqarolarga imtiyozli tarzda ajratib berilgan. Ochig'iy, yaqin gacha boshqa mahallalarga qaraganda, bu hududda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar ko'p edi. "Mahalla yettilligi" ahilidkda ishlasa, har qanday murakkab vazifani ham uddalash, hududni namunal maskana aylantirish mumkinligi amalda isbotlandi.



Taraqqiyot mezonlari



yollanma ishchi sifatida oyiga 1,2 mln. so'mdan daromad topgan bo'lsa, markazga ishga joylashganidan keyin har birining daromadi oyiga o'rta 4-5 mln. so'mni tashkil qilmoqda ekan. Yuk tashuvchi kuryerlarning daromadi muqaddam oyiga 1,8 mln. so'm bo'lsa, endilikda qariyb 5 mln. so'mga ko'tarildi.

Mahallada ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish borasida yaxshi tajriba qo'llanilyapti. Ko'p qavatli

Mahallamizda 230 ta tadbirkorlik subyekti mavjud. Ularning 101 tasida 436 ta yangi ish o'rni yaratildi, - deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sherzod Yaqubov. - O'tgan yilda ishsizlar soni 395 kishini tashkil qilgan bo'lsa, bugunga kelib ular 43 nafari tashkil qilindi. Ijtimoiy nafaqa oluvchilar 153 dan 52 nafargacha kamaydi. Mehnat migratsiyasidagi fuqarolardan 90 nafarini oilasi bag'riga qaytarib, bandligini ta'minlashga erishildi. Ahamiyatli, o'tgan yili mahallamizda birorta jinoyat sodir etilmadi.

"Ayollar daftari", "yoshlar daftari", "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan hamda ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish maqsadida mahallaning o'zida o'quv markazi tashkil qilindi. Unda qo'shni mahallalardan ham 700 nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. Ushbu loyihaning davomiy sifatida mahallada faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkor Gayrat Abdullayev o'z mablag'i hisobiga "Zamin nonlari" sexi va "Buyurtmalar markazi"ni ochdi. O'quv markazini tamomlagan 25 nafar xotin-qizni doimiy ish bilan ta'minladi.

- Bu yerda "Call markaz" yo'lga qo'yilgan bo'lib, buyurtmalar telefon orqali olinadi, - deydi tadbirkor Gayrat Abdullayev. - Zarur xomashyolar yuk tashuvchi kuryerlar tomonidan uy sharoitida ishlovchi nogironlari bo'lgan ayollarning mahallaga yetkazib beriladi. Tayyor mahsulotlarni elektroskuterlar yordamida tarqatish uchun shu mahalladagi "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan 8 nafar fuqaro yuk tashuvchi sifatida ishga olingan. Natijada zamonaviy xizmat turi yana bittaga ortib, aholiga qulaylik yaratildi, ishsiz fuqarolar doimiy daromad manbaiga ega bo'lmoqda.

E'tiborimizni tortgani, shu paytgacha uydah ishlovchi 12 nafar ayol muqaddam

uylar yerto'lalari talovdan o'tkazilib, bo'sh turgan 27 ta yerto'la tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan 10 nafar tadbirkor, 13 nafar fuqaro, "ayollar daftari"ga kiritilgan 4 nafar xotin-qizga ajratib berildi. Ushbu yerto'lalarda qo'ziqorin yetishtirish, yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, kompyuter xizmatlari, tikuvchilik, qo'l mehnati bilan har xil turdagi bezaklar yasash hamda logistika markazi tashkil etilib, jami 193 ta ish o'rni yaratildi.

Bir nechta yillar xorijda ishlab, 2-guruh nogironiga aylangandim, - deydi Oliyaxon Komiljonova. - Ko'p qavatli uyni yerto'lasidan joy ajratib berishgach, u yerda ko'rpacha tikish, suvenirlar yasashni yo'lga qo'ydim. Natijada ro'zg'orimizga baraka kirdi. Hozirda 7 nafar shogird tayyorlab, faoliyatimizni kengaytirib boryapmiz.

Ma'lumki, ko'p qavatli uylarni boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish, kommunal tizimlarning soz ishlashini ta'minlash doim muammo bo'lib kelgan. Bu vazifalar zimmasiga yuklatilgan uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatidan aholi qoniqmasdi.

"Mahalla yettilligi"ning hamjihatlikdagi mehnati e'tiborsiz qolmadi. Yaqinda mahalladagi hokim yordamchisi Shavkat Vafoyev Urganch shahridagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari, xotin-qizlar faoli Hulka Mahmudova "Tozabog" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, yoshlar yetakchisi Zafar Madrahimov Yoshlar ishlari agentligining Urganch shahar bo'limi rahbari lavozimiga ko'tarildi. Endi ular Nuri hayot mahallasidagi xayri tashabbuslarni shahar miqyosida tatbiq etmoqda. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, soliqchi, ijtimoiy xodim va profilaktika inspektoridan iborat "mahalla yettilligi" hamda faol yangi tarkibda ham shunday g'ayrat va shijoat bilan ishni davom ettirsa, Nuri hayot yanada obod bo'lishi, kambag'allikdan, ishsizlik va tashqi migratsiyadan xoli hududga aylinishi muqarrar.

Odilbek O'DAMBOYEV ("Xalq so'zi").

BILGANGA DAROMAD MANBAI

Hozirgi kunda chiqindi muammosi dunyo ahlini tashvishga solayotgan global masalaga aylandi. Aholi sonining o'sishi, sanoatning jadal rivojlanishi va texnologiyalarning tez sur'atlarda yuksalishi chiqindi miqdorining haddan ziyod ortib ketishiga olib kelmoqda.

Bugunning gapi

Tashlamalar haqida gap ketganda, avvalo, uning salbiy oqibatlari ko'z o'ngimizga keladi. Lekin chiqindiga xomashyo sifatida qaralsa va uni qayta ishlashga e'tibor berilsa, u yaxshigina daromad keltirishi mumkin.

Bunga bir misol. Prezidentimiz 2017-yil 10-11-ayol kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrif chog'ida "Bio Texno Eco" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishib, maishiy chiqindilarni qayta ishlash klasterini barpo etish bo'yicha tegishli topshiriqlar bergan edi. Shunga muvofiq korxonada qiymati 43 mlrd. so'mlik loyiha amalga oshirilib, bir yilda 25,5 ming tonna maishiy chiqindini saralash, qayta ishlash, granulata, polietilen quvur, poliestr tola ishlab chiqarish uskunalari o'rnatildi.

Angor tumani hududidan ajratilgan 4 gektar maydonda maishiy chiqindilarni qayta ishlash klasteri yaratildi, - deydi "Bio Texno Eco" MCHJ rahbari Ilhomjon Boqijonov. - Korxonada yonida sanitariya talablariga javob beradigan chiqindixonaga buyud etilib, devor bilan o'raldi. Tarozli, dezbyerlar o'rnatildi. Zamonaviy korxonada 210 kishi mehnat qilmoqda. Ayni paytda Termiz shahri, Termiz va Angor tumanlarida hosil bo'layotgan maishiy chiqindilar to'liq tashib kelinib, shu yemning o'zida qayta ishlab, ikkilamchi yarimtayyor mahsulot chiqarilmoqda.

"Bio Texno Eco" MCHJ 70 dan ziyod chiqindi tashiydigan texnikalar yordamida mijozlarga kunlik sanitariya xizmat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda joylarda mazkur korxonaga qarashli zamonaviy chiqindixonalar ham barpo etilayotgani hududlar infratuzilmasi rivojlanishiga

hissa qo'shmoqda. Ana shunday innovatsion chiqindixonalardan biri Termiz shahridagi Bog'ishamol mahallasida joylashgan.

"Bio Texno Eco" MCHJ chiqindilarni yig'ish beshinchi maydonchasi joylashgan mahalla hududi, asosan, ko'p qavatli uylardan iborat. Maydonchada yashash uchun ikki xonali barcha sharoitga ega bino qurilgan. Saralangan chiqindilar uchun alohida konteynerlar qo'yilgan.

Ushbu zamonaviy chiqindixonaga, avvalo, bandligimni ta'minladi, - deydi Xayrullo Jo'rayev. - Bino zamonaviy jihozlangan, kompyuter, kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Bu yerda 1,5-2 million so'mgacha maosh o'lyapman. Aholining o'zi chiqindilarni saralab tashlashga odatlangan. Qora setlofan xalta qayta ishlamaydigan chiqindilar uchun, oqi qayta ishlamaydigan chiqindilarga hamda jigarrangi esa oziq-ovqat chiqindilari uchun mo'ljallangan. Maydonchada yozib qo'yilgan turli ranglardagi konteynerlar o'rnatilgan. Plastik idishlar uchun o'z gacha dizaynda alohida joy tashkil etilgan.

Ilgari yig'ilgan chiqindilar maxsus poligonlarga jo'natilgan va yer ostiga ko'mib yuborilgan. Shu bilan birga, poligonlar soni tobora ko'payib borgan. Poligonlarda chiqindilarning yer ostidagi kimyoviy parchalanishi natijasida atrof-muhitga turli zararli gazlar tarqaladi. Bugun esa "Bio Texno Eco" MCHJ klasterida tashlamalarga ikkinchi "hayot" berilmoqda. Zero, "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturida belgilangan vazifalar bu boradagi ishlarga qanot bag'ishlamoqda.

Farhod ESONOV ("Xalq so'zi").

27-mart – Xalqaro teatr kuni

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT O'CHOFI

Teatr jamiyat hayotining pastu balandi, unda yashovchi odamlarning orzu-armonlari, iztiroblari, baxtu shodliklari, o'ylari, ruhiyati va kayfiyati, intilishlari, turfa fe'l-atvorini aks ettirishi bilan ulkan ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy ta'bir bilan aytganda, "Teatr – bu ibratxonadir". Zero, bu mo'tabar dargohga qadam qo'ygan inson borki, unda sahnalashtirilgan asardan – u xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda, komik yoki dramatik janrda bo'lsin, o'zi uchun zarur xulosalar chiqaradi.

Bugun mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish, teatrlar sonini ko'paytirish, markazdan tortib olis viloyatlarda faoliyat yuritayotgan bunday madaniy maskanlarning moddiy-texnika sharoitini yaxshilash, ulardagi ishchiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu soha vakillarini yanada ruhlantirib, xalqimizga sara asarlarni taqdim etish, yanada zavqu shavq bilan ijod qilishga undamoqda.

Erkin BOZOROV,
"Turon" davlat harbiy teatri
aktyori:



San'at xalqning dunyoqarashini shakllantiradigan, uning tarixi, milliy mentaliteti hamda madaniy salohiyatini namoyish etadigan qudratli kuch. San'at sohalari ichida teatrning o'ziga xos o'rni bor. Bu san'at turi insonni ma'naviy yuksaltirishda muhim vosita bo'lib, uni bekorga ma'rifiy, axloqiy va g'oyaviy tarbiya maktabi, insonni ruhan poklovchi dargoh deyshimaydi.

Teatr ijodkorga iste'dodini rivojlantirish, mahoratini charxlash uchun katta maydon hisoblanadi. Sahna odamga hayajon beradi, shuningdek, katta mas'uliyat ham yuklaydi.

Shaxsan o'zim ishlaydigan "Turon" davlat harbiy teatr jamoasi juda ahil, bir-biriga mehribon, hamisha bir-birini qo'llaydigan, yelka tutadigan oila. Bu teatr o'z xohishiga ko'ra yig'ilgan va o'ylik maoshsiz ishlaydigan aktyorlar tashabbusi bilan tashkil etilgan. Uning faoliyati ilk davridanoq o'ziga yarasha muxlislari bor edi va bu bizga yanada g'ayrat bag'ishlardi. Bora-bora uning faoliyati yanada jonlandi va bundan 7 yil muqaddam davlat teatri maqomini oldi. Tan olib aytamanki, shu paytgacha qanday yutuqlarga erishgan bo'lsam, bunda yuqoridagi teatrning o'rni katta. Ochig'i teatrga borsam xuddi baliq suvga qaytib nafas olgandek men ham undan yana kuch olaman.

Umuman, bugun yurtimizdagi teatrlar jonlanmoqda, ulardagi soha vakillari ham yanada samarali ishlaydigan harakat qilmoqda. Ishonamanki, kelajakda mazkur yo'nalishdagi ishlar davomli bo'ladi, soha yanada yuksaladi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

Erkin KOMILOV,
O'zbekiston xalq artisti:



Mamlakatimizda keyingi yillarda ijodkor ziyolilarga qaratilayotgan e'tibor teatr san'atida ham o'zining yorqin ifodasini topayotir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning inson qadr-qimmatiga eng ustuvor qadriyat sifatida e'tibor berayotgani milliy teatr san'ati yuksalishida ham namoyon bo'lmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining teatr san'ati xodimlariga yo'llagan ilk tabrigidayoq bu soha va uning vakillariga qanchalik g'amxo'rliqi, ishonayotganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, tabrikda ko'p millatli xalqimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan ustoz san'atkorlar, tanikli dramaturg va rejissyorlar, sozanda va bastakorlar, yosh aktyorlar, sahna rassomlari hamda texnik xodimlarning mashaqqatli va fidokorona mehnatiga urg'u qaratilgan ekan, "Biz sizlarning timsolingizda teatr degan noyob va beqiyos ma'naviy boylikni asrab-avaylab, rivojlantirib, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazib kelayotgan oliyanob insonlarni ko'ramiz", degan so'zlar hamon yuraklarimizni to'lqinlantiradi, ko'tarinki ruh bilan mehnat qilish, ijodiy izlanishlarga ilhom bag'ishlaydi.

Bugun yurtimizdagi mavjud barcha teatr jamoalarining o'z ijodiy qiyofasi, o'ziga xos repertuari, tomoshabin, betakror faoliyat yo'li bor. Ayni kunlarda mamlakatimiz hududlarida tomoshabinlarni ushbu betakror san'at bilan yanada yaqinlashtirish, unga muxlislarni tobora ko'proq oshno qilish maqsadida "Teatr san'ati haftaligi" tashkil etilmoqda. Asosiysi, 27-mart – Xalqaro teatr kuni munosabati bilan hamma teatrlar xalqimizga bepul xizmat ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbek Milliy akademik drama teatriida "Jaloliddin Manguberdi", "Skapening nayranglari", "Sadoqat bilan", "Usmon Nosir" kabi qator asarlar sahnalashtirilib, tomoshabinlarga zavqu shavq ulashmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz teatr jamoalari xalqimizga ma'rifat ulashish, estetik zavq bag'ishlash, salbiy g'oyalardan ogoh qilish borasidagi ezgu vazifasini chin qalbdan bajarmoqda va kelajakda ham shunday davom etishiga shubha yo'q.

Mahfuza BOBOTILLAYEVA,
O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist:



Inson ma'naviyati, madaniyatini oshirish, ayniqsa, bugungi kunda tobora tanqis bo'lib borayotgan odob-axloqni tarbiyalashda teatrning o'rni beqiyos. Axir bu san'at turidan bahramand odam yomonliklardan qochadi, ezguliklar qilishga ruhlantiradi. Demak, teatr sohasi vakillari – bizing zimmamizda ulkan vazifa turibdi va buni sidqidildan bajarsakka o'ylagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Ammo yana bir narsani afsus bilan ta'kidlayman, bugun hayotimizga shiddat bilan kirib kelgan axborot texnologiyalari ushbu san'atni biroz chekinishga majbur qildi go'yo. Doim muxlislar bilan to'lib, ba'zan chipta yetmasdan balkonlardan tomosha qiladigan shinavandalar o'rni huvullab qolganek. Tan olaylik, ko'pchilik odamlar oxirgi marta qachon teatrga tushganini ham eslay olmas kerak.

Menimcha, bu holga tushishimizning yana bir sababi sahnaga qo'yilayotgan asarlar va ularning saviyasi bilan ham bog'liq. Chunki so'nggi paytlarda dramaturgiya sohasi anchayin oqsab qoldi, yozuvchilarimizdan yaxshi asarlar kelmay qo'yd, mavzular toraydi, daraja ham shunga yarasha tushib ketdi. Qaniydi, bizga insonni qahramonlikka chorlaydigan, yuragini junbishga

keltiradigan, ruhiyatini ko'taradigan asarlarni taqdim etishsa, biz ham o'z rolimizni maza qilib o'ynasak, xalqimiz ham tomoshadan ruhi o'ssa! O'ylaymanki, yaqin orada bu boradagi ahvol o'nglanadi.

Shukrki, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan madaniyat sohasi, xususan, teatrlar faoliyatini yanada rivojlantirish, ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ko'rdi. Buni birgina O'zbek Milliy akademik drama teatri misolida ham ko'rish mumkin. Bu maskan bugun poytaxtimizni bezab turibdi, desak, adashmaymiz. Unda faoliyat yuritayotgan har bir xodim – rahbardan tortib tegishli xodimlarga xalqimiz uchun yaxshi tomoshalar qo'yish, ularning ko'nglini olish ilinjida ishlamoqda.

Istardikki, teatrlarimiz hamisha odamlar bilan gavjum bo'lsin, ana shunda biz, ijodkorlar yanada ilhomlanamiz, yaratish, ijod qilishga ishtiyoqimiz yanada ortadi.

HAQIQAT EGILADI, BUKILADI, AMMO...

Hech kimning taqdiri azaliga kambag'allik qismati bitilmaydi. Binobarin, "Sendan harakat, mendan barokat" degan hikmatda ham har bir inson o'z hayotini go'zallashtirishi, turmushini farovon qilishiga da'vat mujassam. Albatta, bunda jamiyatning kambag'allikka munosabati, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy tanglikdan olib chiqishga bo'lgan rag'bat ham alohida o'ringa ega.

Bir murojaat izidan

Shu jihatdan, so'nggi yillarda mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish Yurtboshimiz tomonidan milliy taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tanlanib, turli ijtimoiy tadbirlar bilan bir qatorda jamiyatda, o'zi istasa-da, farovon yashashni ta'minlay olmaydigan kishilarga ko'maklashish zarurligi kechiktirib bo'lmaz vazifa sifatida belgilandi. Chunki jamiyatda kambag'allik muammosi mavjud ekan, davlatning strategik maqsadlarga erishishi mushkulligicha qolaveradi. Boisi kambag'allik mamlakatda byudjet taqchilligi, ta'lim va tibbiy xizmat sifati pastligi, jamiyatda boqimandalik kayfiyatining ortishi bilan asoratlidir.

Boshqa hududlarni bilmadigu Navoiy shahri va Karmana tumanida ko'pchilik kishilar kambag'allikdan chiqishning yagona yo'li – "Qizilqumsement" AJ, "NKMK" AJ, "Navoiyazot" AJ kabi yirik sanoat korxonalariga ishga joylashishda, deb o'ylashadi. To'g'ri, iqtisodiy jihatdan barqaror ushbu ishlab chiqarish quvvatlarida ish haqi yuqori, kuchli ijtimoiy himoya yo'lga qo'yilgan. Biroq mazkur korxonalarda ham ish o'rnlari chegaralangan. Bo'sh

ish o'rni bo'lsa kasb-hunarga ega, malakali mutaxassislariga ehtiyoj tug'iladi. Shunga ega bo'lmaganlarni o'z o'quv markazlarida o'qitib, "qo'lini to'g'rilyadi".

Bugun hikoya qilmoqchi bo'lganimiz – Navoiy shahrlilik Sharofat Obidova (ism-sharifi o'zgartirilgan) ham Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ga yozgan murojaatida farzandini mazkur korxonalardan biriga ishga joylashtirish uchun ko'p sarson bo'lgani, biror natijaga erisha olmagach o'g'li va kelini Rossiyaga ishga ketganini bayon etadi. U o'z murojaatida farzandi Rossiyada "Yandeks" yetkazib berish xizmatida ishlab yurgan paytida qamaligan, o'zining esa ishi yurishmay og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, moddiy yordam so'rab bergan arizasiga MFY tomonidan rad javob olganini ta'kidlagan.

Mazkur arizani atroflicha o'rganish maqsadida shu yilning 14-yanvar kuni Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning viloyatdagi mintaqaviy vakili Shuhrat Jo'rayev boshchiligidagi Navoiy shahri hokimi o'rnbosari, xalq deputatlari viloyat va shahar Kengashlari

deputatlari, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari hamda "mahalla yetiligi" vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, Sharofat Obidovaning xonadonida bo'ldik.

Navoiy shahridagi "Hayot" MFY "mahalla yetiligi"ning ijtimoiy xodimi Madina Mamatova ushbu xonadonda ro'yxatdan o'tgan begona shaxs va uning nomida avtomashina borligi, oila a'zolariga daromad taqsimoti belgilangan mezonidan yuqoriligi sababli rad etilganini xizmat planshetidan ko'rsatdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishida inson omili deyarli cheklangan bo'lib, M. Mamatova astoydil istagan taqdirda ham yordam ko'rsatish yoki ko'rsatilmagligining imkoniyati chegaralangan. Muammoni yuzaga chiqarib, gazak oldirgan omil esa shundaki, xonadonda ro'yxatdan o'tgan avtomashinali shaxs Sh. Obidovaning kenja farzandiga qishki kiyim uchun moddiy yordam olishiga monelik qilgan. Tabiiyki, Sh. Obidova xonadonda ro'yxatdan o'tgan shaxsni mullaqo tanimasligini bildirib, oilasiga undan bir so'm daromad kelmayotganini bayon etdi.

Masala Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) ning Navoiy viloyatidagi mintaqaviy vakili hamda Navoiy shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi nazoratida o'rganilib, begona shaxs Sh. Obidovaning xonadonidan ro'yxatdan chiqarildi. Oradan bir kun o'tib, 15-yanvar kuni fuqaroning arizasi qayta kiritilganida "ijtimoiy xodim kuzatuv va skoring natijalariga ko'ra fuqaro birlamchi ehtiyojlarni qoplash uchun muhtoj, deb topildi". Shu asosda

Sh. Obidovaga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Kiyim-kechak va zaruriy tovarlar" uchun 1 million sakkiz yuz ming so'm ajratish tavsiya etildi.

Mavzuga shu yerda nuqta qo'ysak bo'lardi, biroq oddiy bir muammo nega sansalorlik, fuqaroning tizimdan noroziligini keltirib chiqardi, degan savollar javobsiz qolib ketayotganligi bois mulo hazamizni davom ettiramiz.

Gap shundaki, fuqaro murojaatiga "mahalla yetiligi"ning ijtimoiy xodimi yuzaki yondashib, rad javobning sabablarini murojaatchiga tushuntirmagan. Shunday bo'lganida murojaatchining o'zi ham begona shaxsni o'z xonadonidan ro'yxatdan chiqarib, muammoni bartaraf etgan bo'lar, turli norozilik va e'tirozlarga o'rin qolmasdi.

Kezi kelganda ta'kidlash joiz, Sh. Obidova mazkur yordam bilan og'ir ijtimoiy ahvoldan to'liq chiqib keta olmaydi. Qolaversa, o'zaro muloqotdan fuqaro nimadandir iymonib, asl muddaoni yuzaga chiqara olmayotgani ham ayon bo'ldi. Ya'ni xorijda qamoqqa tushib qolgan farzandlari jangohlarga jalb etilishi ehtimoldan xavotirda ekanini bayon qilib, ularni yurtimizga qaytarishda amaliy yordam so'radi.

Mazkur masala maxsus idoralar vakolatida bo'lib, tabiiyki, fuqaroga ushbu holat bo'yicha tushuntirish berildi. Shu o'rinda asosiy mavzimiz

Chindan ham, kambag'allik va farovonlik orasi bir qadam. O'sha qadamni bosish uchun kishi o'zida jur'at hamda qanoat topishi kerak. Hayotning esa turli sinovlari borki, ularga ta'rif berarkan adib, "Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o'zicha baxtsizdir", deya yozgan edi. Baxtilarga qo'shilish uchun esa harakat kerak.

kambag'allik va og'ir ijtimoiy ahvol hamda undan chiqish omillari xususida maqolamiz avvalidagi fikrlarga qaytsak.

Avvalboshdanoq ta'kidlash joiz, cho'kayotgan kishining o'zi ham harakat qilmasa, qutqaruvchini ham suv ostiga tortib ketishi ehtimoldan xoli emas. Shunga "Barak non Navoiy" MCHJ rahbari Shahnoza Karimovaning faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin.

O'n yil avval men tadbirkorlikni boshlaganimda oilamiz bilan ijrada yashardik, – deydi Sh. Karimova. – Ikki nafar farzandim yosh, xo'jayinim ham ishsiz edi. Tirikchilik uchun har kuni besh-olti kilogramm undan xamir qorib, non pishirar, kechga yaqin uyma-uy sotib, puliga yana un olardik. Shu tariqa ikki yil o'tdi. Pulimiz biroz ko'paygach turli pishiriqlar, chuchvara tayyorlash, do'konlarga topshirishi yo'lga qo'ydik. Biznesimiz esa kengayaverdi. Bugun korxonamizda har kuni olti tonna undan 360 turdagi mahsulot tayyorlab bozorga chiqaramiz. Navbahor tumanining o'zida 200 nafar ayolni ish bilan ta'minlaganimiz. Bugun Toshkentning o'zida ikkita uyimiz, ikkita zamonaviy mashinamiz bor. Turmush tashvishlari bilan bo'lib o'qiy olmay qoldim, deb o'ksinardim. Mana, qirg' yoshimda joriy yil qo'linga oliy ma'lumotlik diplomini olaman...

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi").

MADANIYAT yangiliklari

Aktyorlik mahoratini oshirish sari

Avvalroq Qoraqalpog'iston Respublikasida "Muza" yakkaxon teatri ish boshlagan edi. Oradan bir yil o'tib, teatr jamoasi o'zining "Muza teatr" maktabini tashkil etdi.



Kuni kecha Nukusda ushbu maktabning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda teatrga ijtimoiy-iqtisodiy madad ko'rsatish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Madaniyatni qo'llab-quvvatlash fondi hisobidan mablag'lar ajratilib, vaucher topshirildi.

Tadbir ishtirokchilari maktabning aktyorlik mahorati bo'yicha ochilgan kursning ilk dars jarayoni bilan tanishdi.

Festival g'oliblari taqdirlandi

O'zbekiston davlat konservatoriyasida "Navro'z sadolari" milliy cholg'ular ko'p ovozi ansambli va orkestrlarining XI xalqaro musiqqa festivali bo'lib o'tdi.



Mamlakatimiz Madaniyat vazirligi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston davlat filarmoniyasining "So'g'diyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri tashabbusi bilan XI marotaba o'tkazilgan mazkur festivalda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Ozarbayjondan yuzga yaqin qatnashchilar ishtirok etdi.

Tadbir yakunida g'oliblar aniqlanib, munosib taqdirlandi. Marosimda Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori Kamoliddin O'rinboev mukofotlarni o'z egalriga topshirdi.

Kashtalarning yorqin jilosi

Qozog'iston Milliy muzeyida "Choklardagi meros: O'zbekistonning kashtachilik va tikuvchilik an'analari bo'yab sayohat" ko'rgazmasi ochildi.



Bu haqda Madaniy meros agentligi vakili xabar berdi. Ostona shahrida bo'lib o'tayotgan ushbu ekspozitsiyada XIX-XX asrlarga oid nodir buyumlar – zardo'zi to'nlari, so'zanalar, milliy naqshlar tushirilgan erkaklar hamda ayollar do'ppilari, bezakli yopinchiqlar hamda zargarlik buyumlari namoyish etilmoqda. Ishlar o'zbek kashtachiligini uchun an'anaviy bo'lgan "zamindoz"i hamda "guldo'zi" usullarida bajarilgan.

Ko'rgazma 1-iyungacha davom etadi.

"Xalq so'zi".

27-martdan "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanloviga start beriladi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 242, 15 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va ummulligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obmuni rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.05 Topshirildi — 00.55 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi